

**Debitorlik va kreditorlik
qarzlarni umumiy
hajmi, tarkibi va
vujudga kelish muddati
bo'yicha tahlili.**

Reja:

1. Bozor iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbai;
2. Buxgalteriya balansi bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarni vujudga kelish sabablari;
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish. Muddati uzytirilgan qarzlarning vujudga kelish sabablari;
4. Debitorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlili. Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlili;
5. Kreditorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va tashkil topish muddati bo'yicha tahlili. Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlili.

Foydalanilgan adabiyotlar

Tahlil etishning asosiy maqsadi



Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida chora – tadbirlar belgilashdan iborat.

Debitorlik va kreditorlik
majburiyatlari qatoriga 2002 yil
27 dekabrda tasdiqlangan
buxgalteriya balansiga ko'ra
quyidagi qatorlar kiritiladi:

Debitorlar tarkibiga:

1

- Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000-4900)

2

- Ajratilgan buyumlarning qarzi (4110)

3

- Sho'ba va qaram xo'jaliklarining jamiyatlarining qarzi(4120)

4

- Hodimlarga berilgan bo'naklar (4200)

5

- Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)

6

- Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar(4400)

7

- Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlar(4500);

8

- Tasischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari(4600)

9

- Hodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi(4700)

10

- Boshqa debitorlik qarzlari (4800)

Kreditorlar tarkibiga:

1

- Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarz(6000)

2

- Ajratilgan bo'linmalarga qarz(6110);

3

- Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz (6120);

4

- Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240);

5

- Olingan bo'naklar (6300)

6

- Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz(6400)

7

- Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)

8

- Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz(6520)

9

- Tasischilarga bo'lgan qarzlari (6600)

10

- Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)

11

- Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)

Muddati o'tkazib yuborilgan majburiyatlarning yuzaga chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

Korxonada moliyaviy holatning nosog'lom ekanligi;


Korxonaning to'lov layoqatiga ega emasligi;

Likvid mablag'lari aylanuvchanligining uzoqligi;


Shartnoma majburiyatlariga va to'lov shartnomalariga amal etmaslik;

Xo'jalik shartnomalarini buzilishidan ko'riladigan zararlarning to'g'ri qoplanmasligi


Debitorlik va kreditorlik
majburiyatlarining undirib olish
muddati 3 oy qilib yoki 90 kalendar
kun qilib belgilangan. Ushbu
muddatdan so'ng debitorlik
kreditorlik majburiyatlari nazoratga
olinadi hamda ularning holati
bo'yicha davlat qonunchiligiga
muvofiq javobgarlik shartlari
belgilangan.



Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.



Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarning aylanishlar kuni aniqlanadi.




Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
Jami debitorlik majburiyatlari, ming so'm	53266	136116	+82850
Mahsulotlar sotishdan olinadigan sof tushum, ming so'm	1452513	3040381	+1587868
Joriy aktivlar, ming so'm	531756	689066	+157310
Muddati o'tgan debitorlik qarzlari, ming so'm	3257	4338	+1081
Debitorlik qarzlarning aylanish koeffisienti	27,269	22,337	-4,932
Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida	13	16	+3
Joriy aktivlar tarkibida debitorlik qarzlari ulushi, foizda	10,02	19,75	+9,73
Muddati o'tgan debitorlik qarzlari ulushi, foizda	6,11	3,9	-2,92


Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti va aylanish davri o'zgarishini omilli tahlili:

Ko'rsatkichlar	Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti	Debitorlik majburiyatlarini aylanish davri kun hisobida
O'tgan yil	27269	13
Shartli hisobot yili	57,079	6
Hisobot yili	22,337	16
Jami farq	-4,932	+3
Ta'sir etuvchi omillar	X	X
a) Sotishdan olingan sof tushum summasining	+29,810	-7
b) Debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi	-34,742	+10

Kreditorlik majburiyatlarining to'lash muddatlari bo'yicha quyidagi tarkibini berib o'tish mumkin:



To'lash muddati
kelgan majburiyatlar



To'lash muddati o'tib
ketgan majburiyatlar

Yil kalendar davrining taqsimi bo'yicha kreditorlik majburiyatlarining quyidagi shakllarini berish mumkin:

1

- 1 oygacha bo'lgan majburiyatlar;

2

- 1 oydan 2 oygacha bo'lgan majburiyatlar;

3

- 2 oydan 3 oygacha bo'lgan majburiyatlar;



4

- 3 oydan 6 oygacha bo'lgan majburiyatlar;



5

- 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan majburiyatlar;



6

- 1 yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonuni T 1996 y.
- O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (№1-22) T.1998-2004y.
- A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulov. Buxgalteriya hisobi. – T.: Sharq – 2004y.
- Abdukarimov I, Pardayev M va boshqalar “ korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili” T.: 2003y.
- Internet saytlari:
- www.google.ru
- www.ziyonet.uz